O‘ZBEK, QOZOQ VA QIRG‘IZ XALQLARINING NAQQOSHLIK SAN'ATIDAGI UYG‘UNLIGI VA O‘ZIGA HOSLIGI

Kurbanova Nilufar Abdumutalib qizi

Farg‘ona shahar 3-maktab tasviriy san’at fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada markaziy Osiyo xalqlario‘zbek, qozoq, qirg‘iz xalqlarining naqqoshlik san’atidagi naqsh turlarining bir biriga o‘xshash va farqli tomonlarining tahlili yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Naqsh, naqsh turlari, islimiy naqsh, geomertik naqsh, murakkab naqsh, ramziy naqshlar, astronomik naqsh, maishiiy va diniy naqsh turlari

Аннотация. В статье описан анализ сходства и различия типов узоров в живописном искусстве узбекских, казахских, кыргызских народов Средней Азии.

Ключевые слова. Узоры, виды узоров, исламские узоры, геометрические узоры, сложные узоры, символические узоры, астрономические узоры, бытовые и религиозные узоры

Annotation. The article provides an analysis of the similarities and differences between the types of patterns in the art of painting of the Uzbek, Kazakh, Kyrgyz peoples of Central Asia.

Key words. Pattern, types of patterns, Islamic patterns, geometric patterns, complex patterns, symbolic patterns, astronomical patterns, types of household and religious patterns

KIRISH

Markaziy Osiyo xalqlarining naqqoshlik san’ati ko‘hna tarix va madaniyatning yorqin in’ikosidir. Naqshlar nafaqat kundalik hayotda, balki diniy marosim va bayramlarda ham muhim rol o‘ynagan. Har bir naqsh o‘ziga hos ramziy ma’noga ega bo‘lgan. Naqqoshlik san’atidagi naqsh elementlari har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlari, e’tiqodlari va estetik qarashlarini aks ettiradi. Mazkur maqolada o‘zbek, qozoq, qirg‘iz xalqlarining naqsh turlari, ularning ma’nosi tahlil qilinadi.

Hududiy xususiyatlar

O‘zbek xalqining XXasr da naqqosh san’atini o‘rganish uchun, Bir qancha adabiyotlar tahlil qilindi. Masalan pedagogika fanlari doktori professor S.S. Bulatovning bir qator darslik va o‘quv qo‘llanmalari: —O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati, —Naqqoshlik, Ganchkorlik, —Naqsh alifbosi, -O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati ensiklopediyasi. I.U. Izbasarovning “Naqqoshlik”—Tasviriy san‘at va muhandislik grafikasi va Amaliy san‘at yo‘nalishlari talabalari uchun O‘quv qo‘llanmasi, Q.Qosimovning — Naqqoshlik, A.Ilhomovning —O‘zbek naqshu nigorlari, I.Azamovning Naqshu nigorlari kabi adabiyotlarida naqsh turlarini 3 turga bo‘lib ko‘rsatadi

Ammo S.S.Bulatov va A.Muhtorovning Ganchkorlik san'ati nomli kitobida [6] "[6]Ganchkorlikda naqshlar mazmuniga ko'ra- o'simliksimon, geometrik, gulli girih, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi" deb 4 turga bo'lgan[6]:

"[7]1-O'simliksimon naqsh-tabiatdagi barg,band, daraxt, buta, g'uncha singarilarning rasm naqqosh tomonidan biron-bir uslub va muayyan qonuniyat asosida takrorlab hosil qiladi.

2- Geometrik(handasaviy) naqsh turlaridan biri- girih bo'lib, u "chigal, tugun" ma'nosini anglatadi. Handasaviy naqsh-murakkab naqsh turi bo'lib, to'tburchak, uchburchak, ko'pburchaklardan, aylana va yoylardan iborat bo'ladi. Tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan girihga bo'linadi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportdan bo'lib, har xil rapportning o'z tuzilishi bor. Yevropada u "arabeska" deb yuritiladi.

3-Gulli girih o'simlik va geometrik naqsh elementlaridan tashkil topadi. Yuqorida sanab o'tilgan geometrik va o'simliksimon naqshlar uning elementlari hisoblanadi.

4- Ramziy naqshlar kabutar, sher, baliq, davlat gerbi va boshqalar tasvirlangan naqsh elementlaridan tashkil topadi".

Ramziy naqsh turi Sovet Sotsiolistik Respubliksida hukumat tepasiga Lenin boshchiligida bolsheviklarning kirib kelishi va komunizm mafkurasini butun mamlakat bo'ylab keng yoyilishi natijasida paydo bo'ldi. Uning aosiy elementlari sifatida aynan mehnat qurollari bo'lmish bolg'a, o'roq va besh yulduz nafaqat o'zbek xalqi balki qozoq, qirg'iz, tojik va turkman xalqlarining amaliy san'atida ham keng qo'llanila boshladi. O'roq va bolg'a- ishchi va dehqonlarning birligini ifodalagan bo'lsa qizil yulduz elementida besh qirrali yulduz jahonning 5 qit'asini qizil rang esa proletar inqilobi ramzini ifodalagan. Ushbu naqsh turi XX asrda markaziy osiyo xalqlari uchun alohida bir naqsh turi sifatida naqqoshlik san'atiga kirib keldi. Xalq amaliy san'atida bezak sifatida deyarli yo'nalishlarida qo'llanilar edi.

Ammo bugungi kunda o'zbek xalqi naqshlari 3 turga bo'lgan holda o'rganiladi. Islimiy, Geometrik(girih) hamda murakkab. Islimiy naqsh turining elementlari tabiatdan olingan bo'lib unda o'simliklar (paxta, kungaboqar, lola, oy gul, barg va h.k), daraxtlar, mevalar(anor, olma, bodom va h.k) va hayvonlar (sher, yo'lbars, ukki, kabutar, kiyik va h.k) stilizatsiyalash yo'li bilan tasvirlanadi. Geometrik naqshning asosini geometrik shakllar (uchburchak, to'tburchak, besh qirrali yulduz,

[6]Bulatov, A.Muhtorov. Ganchkorlik san'ati. Toshkent.Musiqa 2006.-24 bet

[7].Bulatov, A.Muhtorov. Ganchkorlik san'atiToshkent.Musiqa 2006.-24 bet

sakkiz qirrali yulduz va h.k) tashkil etadi. Murakkab naqsh esa o‘zida ham islimiy naqsh elementlarini ham geometrik naqsh elementlarini o‘zida mujassamlashtiradi.

Qozoq xalqi naqshlari 4 turga zoomorfik naqsh (hayvonlar va ularning elementlari. Masalan: qo‘chqor, qo‘chqor shoxi, ilon, qushlar, it dumi, mol shohi va h.k) geometrik naqsh (geometrik shakllar: uchburchak, to‘rtburchak, aylana va h.k) o‘simliksimon naqshlar (daraxt, turli o‘simliklar, barg va gullar) astronomik naqsh (oy, yulduz quyosh va h.k.) bo‘lib o‘rganadi.

Qirg’iz xalqi xalq amaliy san’atining ajralmas qismi bo‘lga naqqoshlik san’atini ham juda ko‘plab san’atshunos olimlar o‘rganib chiqqan. Ulardan biri M.V.Rindin o‘zining “Qirg‘iz milliy naqshlari” nomli kitobida [7] “[8]Qirg‘iz ornamenti 173 ta asosiy elementdan iborat bo‘lib, ular boshqa elementlar bilan birlashganda 3500 dan ortiq bezak sub’yektlarini tashkil qiladi.Qirg‘iz naqshining 173ta asosiy elementlari 4 guruhga bo‘linadi: 1)hayvonot olami-98 ta element, 2)O‘simlik dunyosi-20 ta element, 3)lanshaft va tabiat hodisalari 10 ta element 4) maishiy-39 ta va diniy-6 ta” deya naqshlarni 4 turga ajratib bergan hamda har bir naqsh turiga mansub elementlarni asoslab bergan.

Hayvonot olami naqsh turi boshqa naqsh turlariga ko‘ra xalq amaliy san’atida ko‘proq qo‘llaniladi. Unda asosan tog‘ echkisining shoxlari, tuyog‘i, qo‘chqor shoxi, kiyik, qo‘chqorning boshi va tuyoqlari, yo‘lbars, it, ot va boshqalar stilizatsiyalashgan holda uchraydi.

O‘simliklar dunyosi naqsh turida gul, oygul, lola, lolaqizg‘aldoq, barg va novdalar, uzum, paxta va qalampir tasvirlanadi.

Landshaft va tabiat hodisalarida quyosh, quyosh nurlari, to‘lin oy, yari oy, hilol oy, bulut, buloq va boshqalar tasvirlanadi.

Maishiy turda biz mashiy hayotda ishlatiladigan mehnat qurollari, otov (Boz uy) ni ko‘rishimiz mumkin.

Hududiy xususiyatlar

Turli xalqlarda naqsh turlarining farqlanishi kuzatiladi:

- O‘zbek naqshlari: islimiy, gemetrik va murakkab naqsh turlarda iborat
- Qozoq naqshlari: zoomorfik, geometrik, o‘simliksimon va astronomik turlarga ajiratilgan.
- Qirg‘iz naqshlari: Hayvonot olami, o‘simliklar dunyosi, lanshaft va tabiat hodisalari hamda maishiy va diniy naqsh turlarini o‘zida mujassm etgan

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir xalqning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va maishiy hayoti uning bezaklariga ta’sir etgan. Qozoq va qirg‘iz xalqlari kundalik hayotda asosan chorvachilik bilan keng shug‘ullanganliklari uchun ham ularning naqsh kompozitsiyalarida hayvonlar va ularning detallari stilizatsiyalashgan

[8]M.V.Rindin.Qirg‘iz milliy naqshlari. Leningrand.Frunze.1948.18-bet

elementlari ko‘p uchraydi. Har ikala xalq ham naqsqoshlikda elementlarni naqsh turlariga saralayotganida hayvonot olamini uchun alohida tur sifatida tasnif etishgan. O‘zbek xalqi esa bundan mustasno, tabiatdagi gullar, o‘simliklar va hayvonlarni islimiy naqsh turida o‘rganadi. Bu esa naqsh turlari va ularning elementlarini ilmiy va amaliy jihatdan yanada keng o‘rganilishi uchun mustahkam asos yaratadi.

METODOLOGIYA

Markaziy Osiyo xalqlariningnaqsh turlarining o‘xshash va farqli tomonlarini o‘rganishda har tomonlama ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning samaradorligi uchun quyidagi kengaytirilgan metodlar va usullar tanlandi:

1. Adabiyotlarni o‘rganish

- Tarixiy manbalar tahlili: Markaziy Osiyo xalqlarining san’at, madaniyat va xalq amaliy san’atiga oid qadimiy manbalar, tarixiy asarlar va xalq og‘zaki ijodi materiallari o‘rganildi.
- Ilmiy tadqiqotlar sharhi: Xar bir xalqning naqsh turlari bo‘yicha yozilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar ko‘rib chiqildi.

2. Solishtirma tahlil usuli

- Hududlararo solishtirish: O‘zbek, qozoq, qirg‘izxalqlarining naqsh turlari bir-biri bilan taqqoslandi. Ularning umumiyliklari va o‘ziga xos farqlari aniqlab chiqildi.
- Tarixiy solishtirish: Qadimgi va zamonaviy naqsh uslublari o‘rtasidagi bog‘liqliklar va o‘zgarishlar tahlil qilindi.

3. Statistik tahlil

- Naqshlarning ko‘rinishlari va tarqalishi: Ma’lumotlar bazasi tuzilib, naqsh turlarning xilma-xilligi statistik jihatdan baholandi.
- Shakllarning ustuvorligi: Naqsh turlarining ko‘proq afzal ko‘rilgani va qaysi biri qaysi xalqning amaliy bezak san’atida ustuvor ekani aniqlash uchun ma’lumotlar tahlil qilindi.

4. Madaniy va ijtimoiy kontekst tahlili

- Naqshlarning ijtimoiy vazifasi: Ularning insonlarning maqomi, kasbi yoki ijtimoiy rolini qanday ifodalashi o‘rganildi.
- Marosimiy ahamiyati: Naqshlarning turli marosimlarda (nikoh, diniy bayramlar, urf-odatlar) ishlatilishidagi roli tahlil qilindi.
- Mazkur metodologik yondashuvlarning kombinatsiyasi nafaqat naqsh elementlarini aniqroq tahlil qilishga, balki ularning madaniy va tarixiy merosimizdagi ahamiyatini chuqurroq anglashga imkon berdi.

NATIJA

Markaziy Osiyo xalqlarining naqsht urlari xalqning ma’naviy va madaniy boyligini o‘zida mujassam etadi. Ushbu naqshlar orqali insonlarning estetik

qarashlari, dunyoqarashi va tarixiy qadriyatlari ifoda etilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. Naqshlarning xilma-xilligi har bir xalqning o‘ziga xosligini aks ettiradi. Har bir naqshning ma’nosi, rang tanlovi va texnik ishlanmalari xalqning o‘z tarixiy va mintaqaviy xususiyatlariga bog‘liq.
2. Naqshlarda ifodalangan ramzlar – geometrik shakllardan tortib, o‘simlik va astronomik motivlargacha – nafaqat estetik go‘zallikni, balki ijtimoiy maqom va e’tiqod tizimlarini ham aks ettiradi.

Ushbu tahlillar asosida naqshlarning ma’no-mohiyatini yanada chuqurroq o‘rganish, ularni zamonaviy san’at va dizayn sohasida qo‘llash imkoniyatlarini tadqiq etish istiqbollidir. Bu esa milliy madaniyatni asrab-avaylash va uni yangi avlodlarga yetkazishda muhim qadam bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Markaziy Osiyo xalqlarining naqsh turlari ushbu xalqlarning madaniy va tarixiy merosini aks ettiruvchi muhim unsurdir. Ushbu naqshlar xalqning estetika va san’atga bo‘lgan munosabatini, tabiatga, e’tiqodlarga va ijtimoiy hayotga bo‘lgan qarashlarini mujassamlashtiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, naqshlar nafaqat go‘zallik uchun yaratilgan, balki ular muayyan ramziy ma’no va funksiyaga ega bo‘lgan. Geometrik naqshlar tartib va uyg‘unlikni, o‘simlik motivlari esa hayot va o‘sishni ifoda etgan. Hayvoniy va astronomik naqshlar esa xalqning kosmik tasavvurlari va tabiat bilan uyg‘unlikni anglatuvchi ramzlar sifatida ahamiyat kasb etgan.

Naqsh turlari mintaqaviy uslublarini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz naqsh turlari shakli, rang tanlovi va ishlanish texnikasidagi farqlar ularning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mintaqaviy umumiyliklar bu xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarning chuqurligini tasdiqlaydi.

Naqsh ishlashda qo‘llanilgan naqsh elementlari va ramziy ma’nolari yuqori darajadagi hunarmandchilik an’analarini ko‘rsatadi. Bu an’analar nafaqat estetik qadriyatlarni, balki xalqning dunyoqarashi va ijtimoiy maqomini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Tadqiqot bu naqsh elementlarini saqlab qolish va ularni zamonaviy san’at va dizayn sohasida qo‘llash bo‘yicha yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Milliy madaniyatni targ‘ib qilishda bu merosdan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. S.S.Bulatov “Xalq amaliy bezak san’ati” - T.: 1991.
2. S.S.Bulatov. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati-T.: “Mehnat” 1991
3. S.S.Bulatov. Ganchkorlik,naqqoshlik va yog‘och o‘ymakorligiga oid adabiyotlarning izohli lug‘ati.-T.: “Mehnat”,1991.

4. A.Xakimov «Prikladnoe iskusstvo Uzbekistana: tradisii i innovatsii» T.: 2013.
5. I.AzimovO`zbekiston naqshu nigorlari. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1987.
6. Bulatov, A.Muhtorov. Ganchkorlik san’ati.Toshkent.Musiqa 2006
7.M.V.Rindin.Qirg‘iz milliy naqshlari. Leningrand.Frunze.1948
8..Жанибеков У. Культура казахского ремесла. Алматы, 1982.
9. Маргулан А.Х. Казахское народное прикладное искусство. –Алматы, 1987.
10. Мальчик, А. Ю. История кыргызского народного прикладного искусства: эволюция кыргызского орнамента с древнейших времен до XX в. - Бишкек, 2009.